

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
JAMOAT SOG‘LIG‘INI SAQLASH MAKTABI**

**“AHOLIGA KO‘RSATILAYOTGAN BIRLAMCHI
TIBBIY-SANITARIYA YORDAMINI
TAKOMILLASHTIRISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLAR TO‘PLAMI

10-noyabr 2023

TAXRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI

1. **Mamatqulov B.M.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
2. **Asadov D.A.** Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
3. **Rizayev J.O.** Samarqand davlat tibbiyot universiteti
4. **Sharafutdinova N.X.** Boshqirdiston davlat tibbiyot universiteti
5. **Iskandarova SH.T.** Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
6. **Xudayqulova G.K.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
7. **Urazaliyeva I.R.** Toshkent tibbiyot akademiyasi

Texnik kotiblar

8. **To`rayev B.Sh.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
9. **Nematov A.A.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
10. **Raxmatullayeva M.Q.** Toshkent tibbiyot akademiyasi

MUNDARIJA – ОГЛАВЛЕНИЕ – CONTENTS

Abdiyeva M.O. / Premenopauza davridagi ayollarda osteoporoz profilaktikasi	13
Abdiakhatov A.A. / Detection and accurate diagnosis of infectious diseases among the population (using the example of COVID-19).....	14
Абдукаликова Д.Б., Ермуханова Г.Т., Баймуратова М., Жумабаева К.Ж. / Необходимость улучшения стоматологической помощи детям с расстройствами аутистического спектра (РАС).....	16
Абдуллаев Г.А. Абдуллаева Г.А. Халимжонов Л.А. / Применение лекарственных растений в профилактике заболеваний иммунной системы с нарушением фагоцитарной активностью	18
Abdumalikova F.B., Nurillaeva N.M., Wieser E. / Influence of modifiable cardiovascular risk factors on the progression of coronary heart disease	20
Abdurahimov B.A. / The specific aspects of technological process in copper and molybdenum concentrate producing factories	21
Abduvaliyeva F.T., Azizova F.L. / Suv ta'minotini optimallashtirish farg'ona shahari misolida ..	22
Abdurashitova Sh.A., Usmonova N.E., Murodullayev M.N., Murodullayev M.N. / Corporate culture and its role in organization management.....	24
Abdullayev I.K., Xasanov Sh.M. / Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamni tashkil qilishda potranaj hamshiralar ro'lini oshirishning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati	27
Abdullayev I.Q., Qadirberganov X.B., Sapayev A.N. / Aholi salomatligini saqlash va uni yanada mustahkamlashda sog'lom turmush tarzini ahamiyati.....	29
Abdullayev I.Q., Xasanov Sh.M., Sapayev A.N., Qadirberganov X.B. / Atrof-muhitni muxofaza qilish va uning odamlar salomatligini saqlash va mustahkamlashdagi tutgan o'rni	31
Адилов Ш.К., Исомиддинов З.Ж., Адилов З.У. / Реабилитации при консервативном лечении остеонекроза головки бедренной кости после COVID-19	33
Adilova Z.U. / Maktabgacha yoshdagi uyushgan bolalar salomatligiga ta'sir etuvchi havf omillari o'rganish va baholash	35
Аляви Б.А., Фазылов А.В., Ибрагимов А.Ю. / После пересадки органов влияние медицинской реабилитации на качество жизни больных с хронической болезнью почек	36
Арнопольская Д.И., Мухамедова М.Г. / Вариабельность сердечного ритма у молодых мужчин с кардиоваскулярным риском	37
Асадов Д.А., Хакимов В.А., Асадов Х.Д. / Возможные пути трансформации непрерывного профессионального медицинского образования согласно стратегии «Узбекистан 2030»	38
Астанакулов Д.Й., Рафикова Г.Х. / Проблемы менеджмента качества в здравоохранении. 40	
Астанакулов Д.Й. / Профилактика инсульта.....	42
Азимова М.К., Сохибова Г.Ю. / Возникновение опухолей под влиянием факторов окружающей среды.....	44
Badridinov O.U. / Buyrak kasalliklari rivojlanishiga sabab nima	46
Баймуратова М.А., Рыскулова А.Р., Имашева Б.И., Алибаева Г.А., Абдусаламова З.С. / Оценка состояния микробного пейзажа мочи беременных с инфекцией мочевыводящих путей.....	47

Berdimuratov D.A. / Strategy for finding reliable information on the prevalence of among preschool-age children in cities and towns and ways to improve their profilactics	49
Berdiyev A.X., Rasulov Sh.M., Danayev B.F., Ibragimov A.U. / Sil kasalligining oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati.....	50
Dustova G.K., O'rinboyev F.X. / O'zbekiston respublikasida tibbiy sug'urtani joriy etish bemorlar sog'lig'ini tiklash uchun ilk qadam sifatida	52
Восиева З.А., Саидова С.Н. / Ожирение: одно из актуальных проблем общественного здравоохранения.....	53
Даутбаев Д.Г. / Статистические данные о заболеваемости населения болезнями органов пищеварения в Республике Башкортостан по данным обращаемости за 2022 год	55
Джураева Н.С., Комилов И.Ш. / Семейная медицина как ключевой элемент реформы ПМСП	57
Джураева Г.Т., Маматкулов Б.М., Нажмутдинова Д.К. / Обзор результатов оценки качества антенатальной помощи на первичном уровне	58
Ержанова А.Е., Аликеева Г.М. / Состояние здоровья населения в регионе нефтяного месторождения	60
Фазилов А.В., Аляви Б.А., Давлатова Л.Ш., Абдуллаев А.Х. / Лечение статинами больных ишемической болезнью сердца атеросклеротического генеза на амбулаторном	62
Фазылов А.В., Саидов Ж.С., Ашурохунов Ж.О., Хасанов Қ.Х. / Влияние на эмоциональный статус у больных с хронической болезнью почек проведенного гемодиализа.....	63
Имашева Б.И., Камалиев М.А., Локшин В.Н., Киселева М.В., Туреханова А.Д. / Заболеваемость и распространенность гиперплазией эндометрия в Республики Казахстан за 2012-2022 гг.....	64
Imenova N.S., Kamaliyev M.A., Narymbayeva N.N. / Implementation of a diabetes management program at the level of a medical outpatient clinic in rural areas.....	66
Ибрагимова К.М., Сейдахметова А.А. / Качество жизни больных, перенесших пневмонию	68
Инаков Ш.А., Маматкулов Б.М., Инаков А.К. / Усиление адресности социальной помощи и повышение качества оказываемых социальных услуг пожилым и лицам с инвалидностью в Республике Узбекистан	70
Исмаил-заде Н.Т. / Формирование междисциплинарного подхода по вопросам охраны здоровья населения в системе высшего медицинского образования	71
Исраилова С.Б. / Управление в системе здравоохранения	73
Karimbayev Sh.D. / Bolalarda gripp kasalligi va uning profilaktikasi.....	75
Khomidov M.N. / Structure and functions of state medical insurance in the Republic of Uzbekistan.....	76
Kushmatova D.E., O'rinboyev F.X. / Tibbiy sug'urtaning tarixiy jihatlari	77
Mamatqulov B.M., To'rayev B.Sh., Alimardonov Sh.Q. / Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasining natijalari	79
Каримбаев Ш.Д. / Медико-социологический статус больных женщин с хроническими заболеваниями почек.....	81
Karimova S.B. / Yosh oilalar salomatligini baholash	82

SIRDARYO VILOYATIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMLARINI JORIY ETISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV LOYIHASINING NATIJALARI

Mamatqulov B.M., To'rayev B.Sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O'zbekiston)

Alimardonov Sh.Q.

Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi (Toshkent, O'zbekiston)

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish belgilangan. Bunda, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini 2021-yil 1-iyuldan 2022-yil yakunigacha bo'lgan muddatda Sirdaryo viloyatida aprobatsiyadan o'tkazish va uning ijobiy natijalarini 2023-yildan boshlab respublikaning boshqa hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutiladi. Sirdaryo viloyatining tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajribasini tahlil qilish bu boradagi kamchilik va muammolarni o'z vatiqda va samarali hal qilish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasida erishilgan natijalar va kamchiliklarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tibbiy sug'urta mexanizmlarini o'rganishda tibbiy sug'urta joriy qilinishidan oldin va keyingi davrlarda bemorlarni davolanish marshrutlari, aholining salomatlik holati, tibbiyot brigadalari faoliyati, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik ta'minlanganligi va moliyalashtirish ko'rsatkichlari tarixiy, ekspert baholash va statistik usullarda o'rganildi va tahlil qilindi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Loyiha doirasida Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlar natijasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokor, amaliyotchi va patronaj hamshira hamda doyadan iborat tibbiyot brigadalari tashkil etilib, xalqaro ekspertlar tomonidan qayta tayyorlandi. Shuningdek, shifokor oldi ko'rigi, sog'lom turmush tarzi xonalari va profilaktika maktablari tashkil qilindi hamda kunduzgi statsionar xizmatlari kengaytirilgan. Natijada, 40 va undan katta yoshdagi aholining 92 % skriningdan o'tkazilib, kasalliklarni erta aniqlash va asoratlarni oldini olish choralari ko'rildi. Bunda, ularning 60 % amaliy sog'lomligi, 33 %ida ortiqcha vazn, 14 %ida yuqori qon bosimi, 4 %ida qonda qand miqdori yuqori, 2,7 foizida qonda xolesterin miqdori yuqori bo'lgan xavf omillari aniqlangan. Bundan tashqari, oilaviy shifokorning 40 foiz ish yuklamasi amaliyotchi hamshira tomonidan bajarilishi hisobiga, oilaviy shifokorning har bir bemor uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratish imkoniyati yaratildi. Kunduzgi statsionarda davolanganlar soni 10 mingtadan 17 mingtaga (70%) oshdi. Viloyat aholisining 94 % elektron dastur orqali oilaviy shifokorlarga birlashtirildi hamda ularning sog'ligi to'g'risida elektron ma'lumotlar yaratildi. Shuningdek, 131 ta tibbiyot muassasasi uchun 2,5 mingdan ortiq kompyuter texnikasi xarid qilinib, barcha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ish jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Bemorlarga faqat oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida bepul tibbiy yordam ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Bunda, yo'llanmasiz murojaat qilinganda tibbiy yordam pullik asosda ko'rsatilishi belgilandi. Bugungi kunda, shifoxonaga oilaviy shifokor yo'llanmasi bilan murojaat qilish 45 %dan 85 %ga yetkazildi. Natijada, tor soha mutaxassislariga murojaatlar soni 7 %ga, tuman va shahar shifoxonalarida davolangan bemorlar soni 10 %ga kamaygan. Shuningdek, Jamg'arma tomonidan o'tkazilayotgan doimiy monitoring shifoxonalarga bemorlarni asossiz yotqizish ko'rsatkichi 45 %dan 20 %gacha kamayganligini ko'rsatdi. Bemorlarni kafolatlangan paket doirasida 70 turdagi dori vositalari hamda 27 turdagi tibbiy buyumlar bilan ta'minlash boshlandi. Bunda, surunkali kasalliklarni elektron retsept asosida dorixonadan bepul beriladigan 11 turdagi dori vositalari bilan ambulator davolash "reimbursatsiya" tizimi joriy etildi. Dorixona tomonidan berilgan dorilar qiymati Jamg'arma hisobidan qoplab berilmoqda.

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi negizida 6 ta shifoxonani birlashtirish orqali 520 o'rinli Guliston tibbiyot klasteri tashkil etildi. Shifoxonalar bo'limlarini birlashtirgan holda joylashtirish maqsadida 2022-yilda 100 ta davo o'ringa ega terapevtik davolash majmuasi yangi qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada aholiga bir joyda diagnostika va laboratoriya xizmatlari hamda barcha turdagi ixtisoslashgan tibbiy yordam olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek yangi boshqaruv tizimi joriy etilib, bemor o'rinlari fondini shakllantirish, shtat jadvalini tasdiqlash, xodimlar mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishni mustaqil belgilash vakolati berildi. Sohoni moliyalashtirishda mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar konsolidatsiya qilinib, mablag'larni tibbiyot muassasalari bo'yicha ularning hududiy joylashuvidan qat'i nazar erkin taqsimlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, tibbiyot muassasalariga birlashtirilgan aholi soni va tarkibi (yoshi, jinsi) asosida aholi jon boshiga moliyalashtirish tizimi joriy etildi. Natijada, tuman va shaharlarning tutash chegarasida yashovchi aholiga geografik joylashuvi bo'yicha o'ziga yaqin tibbiyot muassasasiga murojaat qilishi hamda aholining har bir nafari uchun ajratilgan mablag'ni u murojaat qilgan tibbiyot muassasasiga yo'naltirish imkoniyati yaratildi. Tibbiyot muassasalariga ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha moliyaviy mustaqillik berildi. Natijada, tibbiyot muassasalari ajratilgan mablag'larni ehtiyojdan kelib chiqib, erkin taqsimlash imkoniga ega bo'ldi. Shifoxonalarga ajratiladigan mablag'larning 10%i bajarilgan ishlar natijasiga ko'ra har bir davolangan holat bo'yicha qayta hisoblanib to'lab berilmoqda. Natijada, davolangan bemorlar soni, murakkab jarrohlik amaliyoti, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar ko'lamini kabi omillar hisobiga Bolalar ko'p tarmoqli markazi 2,2 mlrd so'm qo'shimcha mablag' olgan bo'lsa, Shoshilinch tez tibbiy yordam markazi ambulator sharoitda davolanishi mumkin bo'lgan bemorlarni asossiz yotqizish hisobiga 620 mln so'm miqdorida kam mablag' olgan.

Loyihani amalga oshirish doirasida qator kamchiliklar ham aniqlangan. Davlat tibbiy sug'urtasining asosi hisoblanadigan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar paketi tuman (shahar) va viloyat shifoxonalarida ko'rsatiladigan tibbiy yordam yo'nalishlari kesimida ishlab chiqilmagan. Shifoxonada bemorlar uchun ko'rsatiladigan davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmi aniq belgilanmasligi, sohaga tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etilishida noaniqliklarga sabab bo'lmoqda. Tibbiyot muassasalari rahbarlarining boshqaruv salohiyati hamda ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Natijada, tibbiyot muassasalarida biznes jarayonlarini tashkil etish, ularda xodimlar sonini ish hajmiga muvofiq belgilash, bo'linmalarning profilini hamda davo o'rinlarini ehtiyojdan kelib chiqib o'zgartirish amalga oshirilmasligi aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatiga ta'sir etmoqda. Shifoxonalar faoliyatini raqamlashtirish yakuniga yetkazilmagan (faqatgina birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ish jarayoni to'liq raqamlashtirilgan). Bundan tashqari, amaliyotga davolangan holat bo'yicha moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilganligiga qaramasdan mablag'lardan samarali foydalanish (xodimlarning ish samaradorligini tahlil qilish, ularni munosib rag'batlantirish) imkoniyati cheklanmoqda. Ba'zi davlat tibbiyot muassasalari zarur tibbiy texnika va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.

Xulosa. Davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy qilish aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, moddiy-texnik va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Yuzaga kelgan kamchiliklarni esa bartaraf qilish mumkin.